

kompetensiyasini rivojlantirish, qo'shimcha kasb-ta'lim shartlarida tadqiqot ishlab chiqishi.

2. Rajabova L. Raqamli iqtisodiyot davrida maktabgacha ta'lim: o'zgarishlar, ustuvor yo'nalishlar, yutuqlar va rejalar. Xalqaro ilmiy onlayn konferensiya 15.10.2021 y, Navoiy. "Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda axborot va innovatsion texnologiyalarining o'rni". 1. 88-b

3. Sobirov B.B. Raqamli iqtisodiyot davrida maktabgacha ta'lim: o'zgarishlar, ustuvor yo'nalishlar, yutuqlar va rejalar. Xalqaro ilmiy onlayn konferensiya 15.10.2021 y, Navoiy "Maktabgacha ta'lim sohasini raqamlashtirish va pedagoglar raqamli savodxonligini oshirish – davr talabi" 1. 4-b

4. Kubayeva M. B. IMPLEMENTATION OF VISUAL-DIDACTIC GAMES IN ECOLOGICAL EDUCATION OF STUDENTS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. –2022. –T. 3. –No. 01. –C. 1-4.13.

5. Кубаева М. Visual technologies based on the principles of demonstration is the foundation for pre-schoolers" education //in Library. –2022. –T. 22. –No. 2. –C. 189-200.

6. Кубаева М. Экологиктарбия берishda vizual texnologiyalardan foydalanish //in Library. –2022. –T. 22. –No. 1. –C. 8-11.

7. Кубаева М. Секреты пробуждения любви к природе //inLibrary. – 2021. –T. 21. –No. 2. –C. 51-53.

8. Kubaeva M.B. Q. THE USE OF VISUAL TECHNOLOGIES OF EDUCATION IN ECOLOGICAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – T. 2. – №. 06. – C. 6-10.

9. М Кубаева Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishda vizual texnologiyalarning o'rni // in Library 2021 (1), 102-105

10. М Кубаева Важность экосистемного образования для дошкольников// in Library 2022 (4), 921-926

TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

Ahmadjonova Umida Tojimurodovna
O'zbekiston, Jizzax politexnika instituti, katta o'qituvchi

Annotatsiya. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto hulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Kalit so'zlar. ta'lim, innovatsion texnologiyalar, pedagogika, axborot texnologiyalarini, o'qituvchi

INNOVATIVE INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract. Today, the interest and attention to the use of innovative technologies, pedagogical and information technologies in the educational process is increasing day by day, one of the reasons for this is that until now traditional education If students were taught to acquire only ready-made knowledge, modern technologies teach them to search for the acquired knowledge by themselves, to study and analyze independently, and even to draw their own conclusions.

Key words. education, innovative technologies, pedagogy, information technologies, teacher

ИННОВАЦИОННЫЕ ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. Сегодня интерес и внимание к использованию инновационных технологий, педагогических и информационных технологий в образовательном процессе возрастает с каждым днем, одна из причин этого в том, что до сих пор традиционное образование Если бы учащихся учили приобретать только готовые знания Современные технологии учат их самостоятельно искать полученные знания, самостоятельно изучать и анализировать и даже делать собственные выводы.

Ключевые слова. образование, инновационные технологии, педагогика, информационные технологии, учитель

KIRISH. Ayni paytda mamlakatimizda ta'lim sohasida jiddiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida so'zlamalikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Ta'lim sohasini tubdan isloh qilish borasidagi barcha ishlardan ko'zlangan asosiy maqsad ham shu. Bu borada Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan Innovatsion rivojlanish vazirligi ta'lim muassasalariga zarur ko'makchi vazifasini bajarib kelmoqda. Zero, "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish Strategiyasi"da Innovatsion rivojlanish vazirligiga o'quv-tarbiya jarayoniga yangi ta'lim dasturlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va smart-texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini yanada yaxshilash (elektron modullar tashkil etish va masofaviy o'qitishni joriy etish) vazifasi yuklatilgan. Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan respublikada ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi[1,2].

Metodologiya. Zamonaviy fan metodologiyasining dolzarb vazifalaridan biri o'qituvchining ta'lim texnologiyalarini tizimli joriy etishga yo'naltirilishidir.

Shu nuqtai nazardan, ta'lim texnologiyalarining har xil turlarini uyg'unlashtirish, o'qituvchining ma'lumotlarni qidirish, to'plash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirish, shuningdek, tadqiqot faoliyatini amalga oshirish va muammolarni hal qilish muhim ahamiyatga ega.

Ta'limdagi innovatsiya deganda ta'lim va tarbiyaning maqsadi, mazmuni, usullari, shakllarini o'zgartirishga, o'quv jarayonini yangi talablarga moslashtirishga olib keladigan qisman o'zgarishlarning maqsadli jarayoni tushuniladi. Ular umuman ta'limni rivojlantirish, ta'lim jarayonida aniq vazifalarni amalga oshirishning muhim faol elementidir. Shu munosabat bilan, birinchi navbatda, ta'limning funktsiyalariga e'tibor qaratiladi: biz xohlaymizmi yoki yo'qmi, qadriyat yo'nalishlari o'zgargan, ta'lim jarayonining shakllari, usullari, texnologiyalarini o'zgartirish va rivojlantirish kerak. Demak, innovatsiyalar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, ular alohida o'qituvchilar va butun jamoalarning ilmiy izlanishlari, ilg'or pedagogik tajribasi natijasidir[6].

Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda u har bir talabaga global Internet tarmog'iga kirish imkoniyatini beradi, oddiy "bilim tarjimoni"dan o'qituvchining roli "tajriba tarjimoni" va "ma'no tarjimoni"ga aylanadi. O'qituvchi hamkorlik va muloqot munosabati bilan qaror qabul qilishda talabning tashabbusi, ijodiy izlanishi va mustaqilligini rivojlantirishi kerak[5].

Shunday qilib, pedagogik innovatsiyalar pedagogik muammolarning original, nostandart yechimlarini ijodiy izlash natijasidir, deb ta'kidlash mumkin.

Natijalar va muhokama. O'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi-talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga, o'quv jarayonida o'qituvchi-talabalar mustaqil fikrlashiga, ijodiy ishlashiga, izlanishi, tahlil eta olishi, o'zi hulosa qila olishi, o'ziga, guruhga, guruh esa ularga baho bersa, o'qituvchi esa ularning bunday faolliklari uchun imkoniyat va sharoit yarata oladi. Bizning fikrimizcha ana shu, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Bugungi kun o'qituvchisi o'z kasbining bilimdoni bo'lishiga qaramay zamon bilan ham nafas bo'lishi lozim. Bugungi yoshlarimiz qiziquvchan, yangi texnologiyalarni juda yaxshi foydalana olishadi. Ularni darsga qiziqtirish, dars jarayonida innovatsion texnologiyalar hamda interfaol metodlardan foydalanib darsni qiziqarli tashkil etish o'qituvchidan katta mas'uliyat talab etadi. Bugungi zamonaviy o'qituvchi axborot kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) o'z darsida qo'lay olishi lozim. Dars jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish dars jarayonini qiziqarli, o'quvchilarni faol hamda darsni tez o'zlashtirishiga yordam beradi[3,4].

Shu sababli, hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishga, mustaqil o'rganib, tahlil

qilishlariga, hatto hulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Xulosa. Ta'lim muassasalaridagi o'qitish usullari bilan tanishib, shuni aytishimiz mumkinki, vaqt, jumladan, ta'lim jarayoni ham to'xtamaydi. Yangi vaqt yangi qoidalarni belgilaydi. Yangi ta'lim dasturlari o'quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishga yordam beradi. Ulardan foydalanish bilan mashg'ulotlar yanada qiziqarli va yorqinroq bo'ladi. O'quvchi-talabalarni ta'lim sifatini yaxshilashga ma'lum ta'lim natijalariga erishishga undaydi. Shubhasiz, innovatsion o'qitish usullari an'anaviy usullardan afzalliklarga ega, chunki ular o'quvchi-talabaning rivojlanishiga hissa qo'shadi, uni bilish va qaror qabul qilishda mustaqillikka o'rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmadjonova, Y., & Axmadjonova, U. (2023). Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar. MMIT, 112-113.
2. Axmadjonova, Y. T., Axmadjonova, U. T., & Yaxshiyeva, Z. Z. (2021). Ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 1563-1567.
3. Джураева, Н., & Ахмаджонова, У. (2022). Физика fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(3), 241-243.
4. Tojimurodovna, A. U., & Tojimurodovna, A. Y. (2023). Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalari–yangi imkoniyatlar. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 1276-1277.
5. Yaxshiyeva, Z. Z., Axmadjonova, Y. T., & Axmadjonova, U. T. (2021). Ta'lim sifatini baholash xorij tajribasi misolida o'rganilmoqda. Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal, 383-385.

TA'LIM SAMARADORLIGIDA INNOVATSION AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

Navoiy innovatsiyalar universiteti
Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari kafedrası o'qituvchisi
Farmanov Sardorbek Utkir o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'nalishlari hamda ta'lim samaradorligini oshirishga hissa qo'shadigan izchillik va uzluksizlikni ta'minlash imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.